

Qoraqalpog‘iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I.* Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II.* Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari
- III.* Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo‘yicha taqsimoti
- IV.* Qurilish ishlari bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-iyul oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 7 761,9 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 141,9 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 761,9	141,9
Nukus shahri	1 081,4	110,7
<i>tumanlar</i>		
Amudaryo	305,0	111,4
Beruniy	371,4	108,1
Bo'zotov	66,2	105,1
Qorao'zak	77,9	104,4
Kegeyli	135,9	107,0
Qo'ng'iro't	465,3	257,6
Qonliko'l	80,3	105,0
Mo'ynoq	1 627,9	1 267,0
Nukus	263,4	108,7
Taxiatosh	168,3	113,9
Taxtakopir	78,8	104,0
To'rtko'l	555,9	107,3
Xo'jayli	185,6	104,1
Chimboy	115,3	126,5
Shumanay	105,7	108,8
Ellikqal'a	466,3	111,2

2026-yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Mo'ynoq tumani (1 627,9 mlrd so'm), Nukus shahri (1 081,4 mlrd so'm) va To'rtko'l tumanida (555,9 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,0 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 152,3 % ni tashkil etdi;


- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,8 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 107,5 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,2 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,0 marta ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 586,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 5,6 martani va ularning umumiy hajmdagi ulushi 24,8 % ga ko'payib, 33,3 % ni tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 41,3 % i to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 13,7 % ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etgan holda 3 203,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida korxona turlari bo'yicha
bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Resp.	2 586,4	3 203,8	1 971,7	555,5	103,2	103,7
Nukus shahri	116,0	842,6	122,8	357,1	102,4	101,3
<i>tumanlar</i>						
Amudaryo	43,7	154,3	107,0	870,1	95,1	100,6
Beruniy	29,2	235,6	106,6	226,4	104,1	102,1
Bo'zotov	3,9	52,4	9,9	155,4	102,7	104,4
Qorao'zak	8,1	54,7	15,1	65,1	117,2	97,2
Kegeyli	24,1	95,4	16,4	258,1	96,2	88,9
Qo'ng'iro't	354,2	83,1	28,0	626,8	91,7	83,3
Qonliko'l	11,6	30,3	38,4	249,2	91,5	99,3
Mo'ynoq	1 553,5	60,5	13,9	4 139,4	80,8	85,9
Nukus	12,8	169,9	80,7	124,5	111,1	102,2
Taxiatosh	21,9	119,7	26,7	48,5	158,3	98,5
Taxtakopir	11,9	53,8	13,1	70,9	115,9	104,3
To'rtko'l	118,0	291,5	146,4	259,3	88,6	102,1
Xo'jayli	32,3	95,5	57,8	1 494,8	79,4	103,4
Chimboy	12,7	38,9	63,7	343,5	152,3	102,8
Shumanay	16,0	68,0	21,7	160,9	102,8	102,8
Ellikqal'a	72,7	319,8	73,8	170,2	104,4	104,7

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 25,4 % ni yoki 1 971,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil etdi. Shundan 1 798,9 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 4,4 mlrd so'mni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 168,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
D. Abdullaeva

Manzil:
230103, Nukus, A. Dosnazarov
ko'chasi, 97 a-uy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-75-91
